

ALISHER NAVOIY O'ZBEK ADABIYOTINING BUYUK SIYOMOSI

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tillar fakulteti talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy tarjimai holi, o'zbek adabiyotining tarixi, buguni va kelajagi, Navoiyni anglash, uning adabiy-badiiy merosidan bahramand bo'lish, har bir insonning ham ko'ngil orzusi, ham ma'naviy ehtiyoji va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, o'zbek, adabiyot, tarix, kelajak, adabiy-badiiy, meros, inson, ko'ngil, orzu, ma'naviy ehtiyoj.

Alisher Navoiy (9-fevral 1441-yil — 3-yanvar 1501-yil) — ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480-1500-yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'pri, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

Alisher Navoiy tarjimai holi o'z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarining asarlarida aks etgan.

O'zbek adabiyotining tarixi, buguni va kelajagi xususida so'z yuritar ekanmiz, ko'z oldimizda beixtiyor buyuk Alisher Navoiy siymosi gavdalanadi. Nafaqat adabiyot, balki butun bir millat qiyofasi Alisher Navoiy dahosi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham Navoiyni anglash, uning adabiy-badiiy merosidan bahramand bo'lish har bir insonning ham ko'ngil orzusi, ham ma'naviy ehtiyojiga aylangan. Shu bilan birga buyuk shoir, mutafakkir ijodini o'rganish, tadqiq etish orqali o'zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, uning sarchashmalari, o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi. Boz ta'kidlash o'rinniki, bu masala bugungi kunda ham adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib turibdi. Alhol, nafaqat Respublikamiz adabiyotshunoslari, balki butun dunyoning yetuk mutaxassislari badiiy so'z buyukligini anglash, e'tirof etish maqsadida Navoiy dahosiga, uning o'lmas ijodiga qayta va qayta murojaat etishmoqda. "Navoiyshunos olimlar," degan e'tirof yuzaga kelishining o'zi ham mutafakkir shoirimizning nechog'lik ko'lamli ekanligini anglatadi.

XI asrda o'zbek tilida original va tarjima asarlari yaratgan o'tmishdoshlarining tajribasini davom ettirgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Amiri, Gadoiy va Yaqiniy kabi iste'dodli

shoirlar o'zbek adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga, o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shdi. Ammo Navoiy «Majolisun nafois»ning ikkinchi bobida ko'rsatganidek, turkiy tilda ijod qiluvchi shoirlar son jihatidan nihoyatda oz edi: 90 shoirdan 16 tasi turkiygo'y ekan. Bundan tashqari, ko'pgina o'zbek shoirlari, Navoiyning ta'kidlashicha, o'zbek tilining boyligi va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor berardi.

Qolaversa, shoir "Muhokamatul-lug'atayn" asarida o'zi to'g'risida gapirib, she'r yozishni fors tilida boshlaganini aytadi. Lekin tushunish yoshiga yetib, turkiy til haqida fikr yuritish ehtiyoji tug'ilgach, uning ko'z o'ngida zebu ziynatlari son-sanoqsiz o'n sakkiz ming olamdan ortiq olam namoyon bo'lgani, fazilat va yetuklikda chek-chagarasi bo'Imagan to'qqiz falakdan ortiq falak ko'rgani, dur va gullari yulduzlardan ravshanroq xazina va gulshan uchratgani, ammo bu olamga hech kimning qadami yetmagani va qo'li tegmagani haqida yozadi: "Chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti – mayl forsiy sari bo'ldi. ... o'n sakkiz ming olamdin ortuq, anda zebu ziynat; va sipehre tab'ga ma'lum bo'ldi, to'qquz falakdin ortuq, anda fazlu rif'at; va maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq; va gulshane yo'luqti, gullari sipehr axtaridin duraxshan- daroq; harimi atrofi el ayog'i yetmakdin masun va ajnosi g'aroyibi g'ayr ilgi tegmakdin ma'mun. Ammo maxzanining yiloni xunxor va gulshanining tikani behaddu shumor. Xaylga keldikim, hamonoki, bu yilonlar neshi nashtaridin tab' ahli xiradmandlari bu maxzandin bahra topmay o'tupturlar va ko'ngulga andoq evruldikim, go'yo bu tikanlar sarzanishi zararidin nazm xayli guldastabandlari bu gulshandin bazm tuzgucha guliliklay olmay yo'l tutubdurlar".

Shu tariqa, «Bu til dag'al, unda yuksak san'at asarlari yaratib bo'lmay-di», degan fikriga zarba berish, o'zbek tilining yashirinib qolg'an xazinalarini ochish va uni ilm ahliga, she'r muxlislariga tushuntirish kabi muhim vazifani Alisher Navoiy ko'tarib chiqdi.

Bobur aytmoqchi, "Alisherbek naziri yoq kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas".

Binobarin, Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkociy, Atoiy, Gadoiy singari adiblar adabiy tilning boshlovchilari sanalsa, hazrat Navoiy bu tilni kamolotga yetkazdi, yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Arab tili ilmiy til, fors-tojik tili badiiy adabiyot tili sifatida shuhrat topgan bir paytda 30 tan ortiq asarini o'zbek tilida yozib, o'zbek mumtoz adabiy tilini har tamonlama asoslab berdi.

Ikkinchidan, Navoiygacha bo'lgan adabiy til tarqoq holda edi, o'g'uz, qipchoq, o'g'uz-qipchoq, qarluq kabi. Navoiy katta hududdagi lahjalarni birlashtirib, yagona adabiy til holiga keltirdi, uning tepasida o'zi turdi. Mazkur til uzoq yillar davomida o'zbeklar va atrofdagi boshqa turkiy tillar uchun adabiy til sifatida xizmat qildi. Ayni paytda, mutafakkir "Farhod va Shirin" dostonida ushbu til Xitoydan Xurosongacha, jumladan, Sheruz va Tabrizgacha tarqalgani haqida ma'lumot berib o'tadi.

Uchinchidan, so'z mulkining sohibqironiga qadar biror ijodkor til nazariyasi bilan shug'ullangan emas. Shoir umrining oxirgi paytlarida juda katta hayotiy va ijodiy tajribasini sarhisob qilayotgan davrida, ya'ni 1499 yilda yozilgan «Muhokamatul – lug'atayn»

risolasida mutafakkir oltoy tillari oilasiga kiruvchi turkiy, ya’ni o’zbek tili bilan hind-yevropa tillariga mansub sart (forsiy) tilini fonetik, leksik va grammatik jihatdan solishtirib, chog’ishtirma tilshunoslikka asos soldi.

Mustaqil O’zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O’zbekiston Davlat mukofoti, O’zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O’zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma’rifiy muassasalar, jamoa xo’jaliklari ulug’ shoir nomi bilan ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 1-4 jiddlar, -T.: 1963-1968.
2. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. -T.: 1959-60.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami (20 jildlik), 1-6 jiddlar. -T.: 1987-1992.
4. Alisher Navoiy. Asarlar. 6-10 jiddlar, -T.: 1963-1968.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami (20 jildlik), 7-12 jiddlar, Toshkent, 1991-1996.
6. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=alisher_navoiy_